



ISLOM BANKLARINING XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDA JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

Bobakulov Jaxongir

O'zbekiston Respublikasi Bank – moliya
akademiyasining magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14880909>

Annotatsiya

Maqolada islom banklarining ayrim jixatlari o'rganilgan, asosiy vositalarining xususiyatlari tavsiflangan, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Turli mamalakatlarda islom banki faoliyatining tajribasi o'rganilgan va O'zbekistonda islom banklarini joriy etish istiqbollari taxlil qilingan.

Kalit suzlar: islom banki, mudaraba, ijara, istisna, murabaha, salam, (riba)foiz, depozit.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va barqarorligi islom banklarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori bo'lib, turli sanoat va xizmatlar sektorlari rivojlanmoqda. Bu, o'z navbatida, moliya xizmatlariga talabni oshiradi. Islom banklari iqtisodiyotning turli sohalarida (masalan, qishloq xo'jaligi, sanoat, kichik va o'rta biznes) sarmoya kiritish va kreditlashni qo'llab-quvvatlaydi.

Islom banklarining faoliyatini ta'minlash uchun iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiyaning past darajasi va pul-kredit siyosatining samaradorligi muhimdir. O'zbekiston markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining samaradorligi islom banklarining operatsiyalarini muvofiqlashtirish va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning so'nggi yillarda inflyatsiyani kamaytirish va valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan siyosatlari islom banklarining faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Islom banklarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun yaxshi rivojlangan va diversifikatsiya qilingan moliyaviy bozorlar zarur. O'zbekistonda moliya sektori rivojlanayotgan bo'lsa-da, u hali to'liq global standartlarga javob bermaydi. Shunga qaramay, islom banklarining rivojlanishiga oid normativ va huquqiy bazaning shakllanishi, shu jumladan, islomiy moliya bozorlarining rivojlanishi, davlat tomonidan moliyaviy bozorlarni tartibga solish va ular uchun maxsus qoidalar ishlab chiqilishi bu sektorga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi me'zon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini

shakllantirish belgilangan¹.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yildagi hisobotiga ko'ra, Islom taraqqiyot banki bilan O'zbekistonda banklar tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tizimini joriy qilish yo'nalishlarida xam hamkorlik olib borilmokda. Xozirgi kunda, O'zbekistonning 12 ta banki, jumladan, "Agrobank", "O'zsanoatqurilishbank", "Mikrokreditbank", "Ipak yo'li" banki va boshqalar xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi kredit liniyalari orqali murobaha xizmatlarini ko'rsatmoqda. "Trastbank"ning Trast Muamalat shuba korxonasi islomiy lizing xizmatlarini taqdim etmoqda². O'zbekistonda moliyaviy banklarni joriy etish va bank-moliya tizimiga islomiy moliyalash tamoyilining tatbiq etilishi moliyalashtirishni yanada kengaytirish, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, real ishlab chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek ijtimoiy adolatni mustahkamlash, muqobil moliyaviy mahsulotlar paydo bo'lishi hisobiga aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Islom bankining an'anaviy bank ishi o'rtasidagi asosiy farq shundaki, Islom banki shariat tamoyillariga asoslangan bo'lsa, an'anaviy bank ishi faqat inson tomonidan yaratilgan. Shunday qilib, mahsulotlarning xususiyatlari va biznes yondashuvi kabi operatsiyalarning barcha jihatlari shariat qonunlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu an'anaviy banklarnikidan sezilarli farqga olib keladi.

Islom banki foyda ko'ruvchi tashkilot bo'lsa-da, Islom shariati qoidalariga murosaga kelmaydi. Islomiy bank ishi odatdagi foizga asoslangan banklar singari narx belgilash va pul ayirboshlash va foiz olishga asoslanmagan, balki u tovar va xizmatlar sotiladigan va shariatga muvofiq foyda olish uchun tavakkal qilib sarmoya kiritiladigan savdo tizimidir³.

Islom banki shariat printsiplariga asoslangan bo'lib, asosiy printsiplaridan biri – foiz olishni ta'qiqlashdir. Bu esa, musulmon qonunlariga ko'ra, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

Islomiy bank (riba)foiz shaklida mukofot olish, investitsiya depozitining qaytarilishini yoki daromadini kafolatlash, tamaki, alkogol mahsulotlari, qurol-yarog'lar va o'q-dorilar ishlab chiqarish savdosi, qimor o'yinlari kabi faoliyatlarni moliyalashtirish (kreditlash) huquqiga ega emas, shuningdek, Islom moliya prinsiplari bo'yicha kengash tomonidan moliyalashtirish (kreditlash) taqiqlangan boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ham amalga oshira olmaydi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

² <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqqnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>

³ Akhmadjonov O. et al. Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10-2. – C. 755-761.





Islom foizni foyda olishning bir shakli sifatida qoralaydi, shuningdek Islom bankining yana bir muhim printsipti – islom qonunlariga zid bo'lgan faoliyatlarga, masalan, alkogol yoki chuchqa go'shti ishlab chiqarishga investitsiya kiritishni ta'qiqlashdir. Islom banki jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini jalb qilib, ularni biznes sub'yektlariga investitsiya sifatida yo'naltiradi, bu esa aylanma yoki asosiy kapitalni moliyalashtirishga qaratilgan. Ya'ni, Islom banki g'arb banklarining moliyaviy vositachilik vazifalarini bajaradi. Farqi shundaki, bu vazifalar qanday bajarilishi, mablag'lar qanday oshirilishi va ular qanday ishlatilishiga bog'liq. G'arb banklaridan farqli o'laroq, islom banki depozitlar bo'yicha foiz to'lamaydi⁴. Islom bankida quyidagi asosiy vositalar ajratiladi:

- musharika,
- mudoraba,
- ijara,
- istisno,
- salam,
- murobaxa.

Umumlashtirilgan holda, islom banki vositalarining xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari 1-jadvalda keltirilgan⁵.

⁴ Chernoskutov F. A. Islamskiy banking: osobennosti i perspektivy vnedreniya v Rossii //Vesennie dni nauki: sbornik dokladov Mejdunarodnoy konferentsii studentov i molodyx uchenykh.—Ekaterinburg, 2023. – Izdatel'stvo Izdatel'skiy Dom «Ajur», 2023. – S. 1246-1249.

⁵ Широкова, К. С. Исламский банкинг: мировой опыт и перспективы распространения в России / К. С. Широкова, А. В. Рыжова // Ислам в Сибири: вызовы времени: сборник докладов Международной научной конференции, Омск, 12–13 мая 2016 года. – Омск: Омский государственный технический университет, 2016. – С. 79-82.

1-jadval – Islom bankiniing vositalarini tahlil qilish

Vosita	Tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Musharaka	Tadbirkor va bank qo'shma korxona tashkil qiladi, uning foydasi va zararini har bir tomonning kiritgan kapitaliga nisbatan proporsional bo'ladi (bu izoh shuni anglatadiki, ham tadbirkor ham bank o'zlarining sarmoyalari miqdoriga ko'ra korxonaning foydasidan yoki zararidan manfaatdor bo'ladi).	Bu usul karvon savdosi davridan qo'llanib kelinadi, demak, uning qo'llanilishi "vaqt bilan sinovdan o'tgan". Xavf kapital egalari urtasida ularning sarmoyalariga proporsional ravishda taqsimlanadi (bu usulning uzoq tarixga ega ekanligi va uning ishonchligi ta'kidlanmoqda, shuningdek xavfning adolatli taqsimlanishi xaqida so'z yuritilmoqda).	Tomonlarning hech biriga foyda olish kafolati mavjud emas, ya'ni sheriklari urtasidagi shartnoma yoki kelishuvda foyda olish haqida hech qanday kafolat berilmaydi.
Mudaraba	Bu islomiy moliya va biznes sohasida ishlatiladigan shartnoma turidir. U ikki tomon o'rtasida tuziladi: biri "rab al-mal" (mablag' egasi), boshqasi esa "mudarib" (ishni amalga oshiruvchi). Shartnoma asosida, mablag' egasi kapitalni taqdim etadi, mudarib esa bu mablag'ni ishga soladi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi.	Agar loyiha zarar ko'rsatsa, zarar faqat mablag' egasiga tegishli bo'ladi, mudarib esa o'zining mehnatini yo'qotadi, lekin moliyaviy zarar ko'rmaydi. Foyda oldindan kelishilgan nisbata asosida bo'linadi, bu esa ikki tomonning manfaatlarini muvozanatlashga yordam beradi. Mudaraba shartnomasida foizlar mavjud emas. Bu islomiy moliya tizimining asosiy prinsipi bo'lib, barcha	Mudaribning o'z mehnatiga e'tibor bermaslik yoki kam ishlash xavfi mavjud. Agar mudarib o'z ishiga jiddiy yondashmasa, mablag' egasi zarar ko'rishi mumkin. Bunday holatlarda, mablag' egasining foyda olish imkoniyati kamayadi. Mablag' egasi o'z kapitalini ishga solishga rozi bo'lishiga qaramasdan, loyiha muvaffaqiyatsiz bo'lsa, barcha

		operatsiyalar "riba" (foiz olish) dan holi bo'ladi va shuning uchun halal (ruxsat etilgan) hisoblanadi.	zararlarni o'z zimmasiga oladi. Bu mablag' egasining katta xavf ostida qolishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa, loyiha muvaffaqiyatsiz yakunlansa.
Ijara	Bank aktivni sotib olib, uni lizingga beradi, ba'zida uni sotib olish huquqi bilan berishi ham mumkin. Bu holatda bank ma'lum bir mulkni yoki aktivni sotib oladi va uni lizing asosida ijaraga beradi. Lizing muddati oxirida, ijarachi aktivni belgilangan narx bo'yicha sotib olish huquqiga ega bo'ladi.	Faoliyatning mavsumiyligini inobatga olgan holda, to'lovlar uchun moslashuvchan jadval tuziladi. To'lovlar jadvali mijoz faoliyatining mavsumiy o'zgarishlarini hisobga olib, moslashtirilganligini bildiradi. Masalan, agar biznes faoliyati yilning ma'lum vaqtlarida ko'proq daromad keltirsa, to'lovlar ham shu davrga mos ravishda belgilanishi mumkin.	Agar mulk lizing oluvchining aybi bilan bulmagan xolda xalok bo'lsa, bank zarar ko'radi. Bu xolatda, lizing shartnomasi bo'yicha mulkning zarar ko'rishi yoki yuqolishi bankning hisobidan amalga oshirilishi mumkin, agar bu lizing oluvchining xatosi yoki beparvoligi tufayli bo'lmagan bo'lsa.



Istisna	Bank mijoz va ishlab chiqaruvchi urtasida loyixa moliyalashtirish doirasida vositachi sifatida chiqadi. Bu xolatda bank moliyalashtirish jaraenida mijoz va ishlab chiqaruvchi urtasidagi aloqalarni tashkil etadi va ular urtasida mablag'lar yeki resurslar almashinuvini amalga oshiradi.	Ishlab chikarishni soddalashtirish imkonini beradi. Tulovning moslashuvchanligi:kelishuvga binoan tulovlarni qismlar bilan amalga oshirish mumkin. Ishlab chiqarish jaraenini osonlashtirish va tulovlarni qismlarga bo'lib, mos keladigan shartlar asosida amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'ladi.	Narx shartnoma tuzish paytida belgilanadi, shu sababli narxlarning keskin uzgarish xavfi yuzaga keladi. Bu xolatda, narx shartnoma tuzilgan vaktga bog'liq bo'lib, kelajakda narxlar o'zgarishi mumkin, bu esa moliyaviy xavf tug'diradi.
Salam	Bank mijozi uchun tovarni sotib oladi, sungra uni mijozga bank xizmatlari uchun tulovni uz ichiga olgan narx bilan qayta sotadi, shu bilan birga mijoz tulovni oldindan amalga oshiradi.	Sotuvchi ishlab chikargan tovarning tuliq xajmda sotib olinishi kafolatini oladi, mijoz esa buyurtma kilingan tovarni belgilangan miqdorda va yuqori sifatda olishi kafolatlanadi. Bu xolatda sotuvchi va xaridor o'rtasida tovar sotib olish va sotish shartlari buyicha kafolatlar mavjud, bu esa tomonlarning o'zaro ishonchini ta'minlaydi.	Shartnoma buyicha tovarning yetkazib berish vaktida anik narxini belgilashning imkonsizligi mavjud. Bu xolatda, shartnoma tuzilgan paytda tovarning narxi anik bo'lmasligi yeki kelajakda o'zgarishi mumkun.
Murabaha	Mijoz bankka ma'lum tovarlarni sotib olishni iltimos kiladi, bank esa sotib olish, saklash va tashish ishlarini uz zimmasiga oladi. Keyinchalik bank tovarni mijozga shartnomada	Shartnomaning nisbatan soddaligi shundaki, bunda foyda tovarning narxiga kushilgan kushimcha narxdan iborat bo'ladi. Bu xolatda shartnoma oddiy bo'lib, bankning daromadi tovarning asl narxiga qushilgan qo'shimcha narxdan olinadi.	Mijozning tovarni sotib olishdan bosh tortish xavfi mavjud. Ushbu vosida ko'plab mutaxassislar tomonidan yashirin foizlarni xavfi tufayli tanqid qilinadi.

	belgilangan qushimcha narx bilan sotadi. Bu xolatda bank mijoz uchun tovarlarni xarid qilish, saklash va tashish jaraenlarini boshqaradi, sungra belgilangan narxga asosolanib, ularni mijozga sotadi.		
--	--	--	--

Asosan Islom banklari Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi mamlakatlari va Malayziyadagi hududlarda joylashgan. 2020 yilda shariat qoidalari bo'yicha boshqarilayotgan moliyaviy resurslar hajmi 3 trillion dollarga yetgan⁶. Batafsil ma'lumot 2-jadvalda keltirilgan.

2 - jadval – 2022 yil davomida islom banklari aktivlarini eng katta o'sishini ko'rsatgan mamlakatlar reytingi⁷

No	Davlat	2022-yil Islom banklari aktivlarining xajmi, mil. dollar.	2021 – yilga nisbatan o'zgarish, %
1	Saudiya Arabistoni	385,590	27,82
2	Iroq	80,850	27,46
3	Qatar	149,361	21,92
4	Pokiston	21,792	16,17
5	Ummon	13,314	13,26
6	Indoneziya	16,267	11,87
7	Bangladesh	55,186	10,44
8	Shri-Lanka	66,600	10,17
9	Bahrayn	76,357	5,95
10	Quvayt	107,584	4,99

⁶ Юсупов С. В России появится исламский банкинг. Что это такое, почему запрещен доход с процентов и какие перспективы, banki.ru [Электронный ресурс] <https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=10971107> (Дата обращения: 08.04.2023)

⁷ John Everington. The Banker's Top Islamic Financial Institutions 2022, thebanker.com [Электронный ресурс] <https://www.thebanker.com/Market>.

MDX mamlakatlarida islom moliya xizmatlari sektori bo'yicha Qozog'iston Respublikasi yetakchi hisoblanadi: 2025 yilga kelib, Islom banklari aktivlarining bank sektori umumiy aktivlaridagi ulushi 3% ga oshirilishi rejalashtirilgan. Qirg'iziston Milliy banki 2025 yilga kelib islom moliyasining ulushini 5% ga oshirishni maqsad qilgan⁸.

Islom banki joriy etilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf – fuqarolarning uning imkoniyatlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi va uning omma tomonidan noto'g'ri qabul qilinishi, shuningdek, qonun loyihasining qabul qilinishi bilan moliya bozoriga yangi ishtirokchilar kirib kelishi, bu esa fuqarolarda ma'lum darajada ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayrim olimlarning fikriga qo'shilgan holda, ta'kidlash lozimki, tijorat banklari o'z xodimlarining islom banki xizmatlari tamoyillari va faoliyati bo'yicha o'qitilishini ta'minlashi shart. Bunga xodimlarni shariat moliya qoidalariga o'rgatish va tegishli mahsulotlarni sotish kiradi. Xodimlarni shariat moliyalashtirish qoidalariga va tegishli mahsulotlarni sotish tartibiga o'rgatish shariat moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi bank faoliyatining muhim qismidir. Bu xodimlarga ushbu sohani tartibga soluvchi asosiy tamoyillar va qoidalarni tushunish imkonini beradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda Islom banklarini joriy etish va islom banki mahsulotlarini rivojlantirishning xuquqiy asoslarini yaratish, Islom banklarini tashkil qilish uchun alohida litsenziya va tartibga solish mexanizmlari joriy etilishi zarur. Islom banklari faqat shariatga mos faoliyat ko'rsatadigan banklar sifatida ro'yxatga olinishi va faoliyatini shu asosda olib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmadjonov O. et al. Islom banki va an'anaviy banklar o'rtasidagi farqlar //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10-2. – С. 755-761.
2. Абсаматов А. Э. ЎЗБЕКИСТОНДА ИСЛОМ БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИАТЛАРИ //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. 01. – С. 347-353.
3. Юсупов С. В России появится исламский банкинг. Что это такое, почему запрещен доход с процентов и какие перспективы, banki.ru

⁸ Широкова, К. С. Исламский банкинг: мировой опыт и перспективы распространения в России / К. С. Широкова, А. В. Рыжова // Ислам в Сибири: вызовы времени: сборник докладов Международной научной конференции, Омск, 12–13 мая 2016 года. – Омск: Омский государственный технический университет, 2016. – С. 79-82.



[Электронный ресурс] <https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=10971107>
(Дата обращения: 08.04.2023)

4. Широкова, К. С. Исламский банкинг: мировой опыт и перспективы распространения в России / К. С. Широкова, А. В. Рыжова // Ислам в Сибири: вызовы времени: сборник докладов Международной научной конференции, Омск, 12–13 мая 2016 года. – Омск: Омский государственный технический университет, 2016. – С. 79-82.

5. Chernoskutov F. A. Islamskiy banking: osobennosti i perspektivy vnedreniya v Rossii // Vesennie dni nauki: sbornik dokladov Mejdunarodnoy konferentsii studentov i molodykh uchenykh.—Ekaterinburg, 2023. – Izdatel'stvo Izdatel'skiy Dom «Ajur», 2023. – S. 1246-1249.

6. John Everington. The Banker's Top Islamic Financial Institutions 2022, thebanker.com [Электронный ресурс] <https://www.thebanker.com/Marke>.

7. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

8. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqqnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>.

